

O‘ZBEK↔TURK TARJIMON DASTURI UCHUN LEKSIKOGRAFIK MANBALAR TAHLILI

Abjalova Manzura Abdurashetovna

Filologiya fanlari doktori (DSc),

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

abjalova.manzura@gmail.com

Egamberdiyeva Yulduzxon Yuldoshali qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi

***Annotatsiya.** Ushbu maqola tarjimon dasturlar uchun lingvistik bazani shakllantirishda materiallar tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda o‘zbek va turk tillarining tarjima lug‘atlarini qiyosiy aspektda tadqiq etib, o‘zbek↔turk tillari tarjimon dasturining lingvistik bazasi uchun materiallarni saralandi.*

***Kalit so‘zlar:** leksikografiya, qiyosiy aspekt, mashina tarjimasi, lingvistik protasessor, lingvistik baza.*

***Abstract.** This article is devoted to the research of materials for the formation of the linguistic base for translation programs, in which the translation dictionaries of Uzbek and Turkish languages were studied in a comparative aspect, and the materials for the linguistic base of the Uzbek↔Turkish language translator program were sorted.*

***Key words:** lexicography, comparative aspect, machine translation, linguistic processor, linguistic base.*

Kirish. Lug‘at tayyorlashda boshqa tilning yozma tilini bilishdan tashqari, geografiyasi va tarixini yaxshi bilish, geografiyadagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni o‘qish va filtrlash, lug‘atshunoslik sohasidagi o‘zgarishlarni, ayniqsa, bu boradagi dolzarb nashrlarni o‘qish va baholashni talab qiladi. Til millatning barcha madaniy qarashlari yig‘indisidir. Millatning barcha qadriyatlarini o‘sha yozma tilning lug‘atida til orqali o‘z aksini topadi. Shu ma’noda lug‘at ana shu jamiyatni aks ettirish bilan birga, til va uning taraqqiyoti haqida ham ma’lumot beradi. So‘zlar va ularning izohlari haqidagi ma’lumotlar azaldan an’anaviy ravishda lug‘atlarda saqlanadi. Tabiiy tilni qayta ishlash bo‘yicha tadqiqotlarning rivojlanishi bilan kompyuter o‘qiy oladigan lug‘atlarga ehtiyoj paydo bo‘ldi [Miller, 1995. 38:39-41]. Ushbu ehtiyojlarni qondirish maqsadida leksikografik ma’lumotlarni zamonaviy hisoblash mashinalari uchun moslashtiradigan formatda so‘zlar tarmoqlari yuzaga keldi.

O‘zbek-turk tillarining tarjima lug‘atlari tavsifi. Mustaqillikdan so‘ng Turkiya bilan O‘zbekiston o‘rtasida ko‘p qirrali aloqalar o‘rnatildi. Bu munosabatlarning eng muhimi, shubhasiz, madaniy aloqalardir. Albatta ushbu munosabatlarda tarjima lug‘atlariga ehtiyoj yuqori darajada bo‘ldi. Natijada “Çağdaş

Türk Lehçeleri Sözlüğü“ – “Hozirgi turk lahjalari lug‘ati“ni tayyorlash komissiyasi tuzildi. Bu tadqiqotda professor Berdaq Yusuf lug‘atning o‘zbekcha bo‘limini tayyorladi. Tadqiqotning davomida 1992-yil Berdaq Yusuf, Mehmet Hengirmen bilan birgalikda “Türkçe-Özbekçe Sözleşgiç“ nomli asarini nashr ettirdi. So‘zlashgichning oxirgi qismida o‘sha vaqtda eng faol qo‘llanilgan olti yuzga yaqin so‘zning tarjimasini izohlangan.

1993-yilda o‘zbekcha – turkcha ilk tarjima izohli lug‘ati O‘zbekiston turkolog olimi Berdaq Yusuf tomonidan tuzildi. Turkologiya tarixida muhim o‘rin tutgan bu lug‘at 415 sahifa, ikki qismdan iborat. Lug‘atning birinchi qismi “Turkcha – o‘zbekcha lug‘at“, ikkinchi qismi “O‘zbekcha – turkcha lug‘at“dan tashkil topgan va taxminan o‘n to‘rt ming so‘zni o‘z ichiga oladi [B.Yusuf, 1993. – B. 415]. Leksikografiyasi tarixida muhim o‘rin tutgan B.Yusufning ushbu izohli lug‘atidan tashqari yana quyidagi 3 ta tarjima uchun beqiyos lug‘atlari nashr etilgan: “Sözlük-Özbekistan Türkçesi-Türkiye Türkçesi, Türkiye Türkçesi-Özbekistan Türkçesi, Lug‘at O‘zbekiston Turkchasi-Turkiya Turkchasi va Turkiya Turkchasi“ [B.Yusuf, M.Tulum, 1994.], “Turk tilining ters lug‘ati – Türk dilinin ters sözlüğü“ [B.Yusuf, 2004.], “Turkcha-o‘zbekcha aldoqchi so‘zlar lug‘ati, Türkçe-Özbekçe sesteş kelimeler sözlüğü“ [B.Yusuf, 1997.]

Tunjay O‘zturk va Abduraziq Rafiyev boshchiligida “O‘zbek-turk litseyi nashri“ tomonidan chop etilgan “O‘zbekcha – Turkcha va Turkcha – o‘zbekcha izohli lug‘ati“, avvalo, ilk marotaba izohli lug‘at tarzida yaratilgani bilan farq qilsa-da, amaliy jihatdan ham ikki tilli, ham izohli lug‘atlar o‘rnini bosa olishi bilan undan foydalanuvchilar uchun har jihatdan qulay [T.O‘zturk, A.Rafiyev, 1997.]. Lug‘atga o‘n bir mingdan ortiq turkcha so‘z, mingga yaqin o‘zbekcha so‘z kiritilgan. Mazkur lug‘at o‘zbek-turk litseylari o‘quvchilariga mo‘ljallanib tayyorlangan bo‘lsa ham, turk va o‘zbek tilini o‘rganuvchilar, tarjimonlar, shuningdek, barcha qiziquvchilar uchun yaxshi qo‘llanma sifatida asqotadi.

G‘anisher Matisayev tomonidan tuzilgan “Turkcha – O‘zbekcha lug‘at“ esa o‘n mingdan oshiq turk tilidagi eng zarur so‘zlarni o‘z ichiga olgan [G‘.Matisayev, 2018.]. Keltirilgan so‘zning ma‘nosini ochib berish uchun izoh sifatida ibora va idiomalardan ham foydalanilgan.

Turk tili jamiyati (Turk Dil Kurumu) tomonidan Anqarada nashr etilgan Nasiba Yusupovaning “Türkçe – Özbekçe sözlük“ kitobi avval yaratilgan izohli lug‘atlarga nisbatan so‘z boyligining ko‘pligi va mukammal tuzilganligi bilan farqlanadi [N.Yusupova, 2018.]. Ushbu lug‘at jami o‘ttiz besh mingtaga yaqin so‘zdan tashkil topgan va lug‘atning kirish qismida o‘zbek va turk tili alifbosida farq qiluvchi harflar

mavjudligi sababli talaffuzda xatolik bo‘lmasligi uchun har ikki til alifbosidagi har bir harfga jadval ko‘rinishida misollar keltirilgan. Mazkur lug‘atning boshqa izohli lug‘atlardan farqli jihati shundaki, izohlanayotgan ko‘chirma so‘zlar aynan qaysi tilga mansubligi va qaysi so‘z turkumiga oidligi aniq ko‘rsatilgan.

Lug‘atlardagi leksik farqlanish. Turkologiyada o‘zbek va turk tillarida tuzilgan ilk tarjima lug‘ati muallifi Berdaq Yusufning “Turkcha – o‘zbekcha va o‘zbekcha – turkcha lug‘at“ kitobi olti mingdan ortiq turkcha so‘z va sakkiz mingga yaqin o‘zbekcha so‘zdan tarkib topgan. Mazkur lug‘at ilk tuzilgan lug‘at bo‘lganligi bois ham so‘nggi tuzilgan lug‘atlar bilan taqqoslaganimizda izohlanayotgan so‘zning aksar hollarda faqat bir ma‘nosi izohlanganini kuzatishimiz mumkin:

Turkcha leksema	transkripsiyasi	O‘zbekcha muqobili
Alan	Olon	Maydon

Tunjay O‘zturk va Abduraziq Rafiyev boshchiligida tuzilgan “O‘zbekcha – turkcha va turkcha – o‘zbekcha izohli lug‘ati“da ham bu so‘zning ma‘nosi faqat bir ma‘noda izohlangan:

Turkcha leksema	O‘zbekcha muqobili	Turkcha izoh
Alan	Maydon	Düz, açık ve geniş yer, meydan

Naiba Yusupovaning izohli lug‘atida bu so‘zning ma‘nosi:

Turkcha leksema	O‘zbekcha muqobili
Alan (is.)	1. Maydon. 2. Soha. 3. Yuza.

G‘.Matisayevning izohli lug‘atida ham ushbu so‘zning izohi N.Yusupovada berilgan izohdagidek uchta ma‘nosi berilgan. Turk tili jamiyati tomonidan tuzilgan “Türk dil kurumu sözlükleri”da [<https://sozluk.gov.tr/>] ham ushbu so‘zning izohi sifatida maydon, soha, yuza ma‘nolari kiritilgan:

1. (*isim*) Düz, açık ve geniş yer; meydan – tekis, ochiq va keng maydon.
2. (*isim*)Yüz ölçümü – yuza o‘lchami.
3. (*isim*)Bir çalışma çevresi – soha.

“Sanat kapalı bir alan değildir; sanat eseri herkes için, bütün toplum için yaratılır.“ (Nurullah Ataç)

Turkcha *kafa* so‘ziga berilgan izohlardagi farqliliklar:

Berdaq Yusuf izohida	T.O‘zturk va A.Rafiyev izohida	G‘.Matis ayevev izohida	N.Yusupov a izohida
----------------------	--------------------------------	-------------------------	---------------------

Bosh; kalla.	Bosh; kalla.	Bosh; kalla.	1. Bosh; kalla. 2. Zehn.
--------------	--------------	--------------	-----------------------------

“Türk dil kurumu sözlükleri”da *kafa* so‘zining “zahn” ma’nosi ham mavjudligi qayd etilgan:

“Kalbi ve kafası daima yeni, daima genç kaldı”. (Yusuf Ziya Ortaç)

Ushbu jumla ilova orqali tarjima qilinganda so‘zma-so‘z tarjima qilganiligi uchun xato tarjima qilindi: “Qalbi va boshi doimo yangi, doimo yosh qoldi.” Aslida esa, ushbu jumla tarjimasi quyidagicha bo‘lishi kerak edi: “Qalbi va aqli (zehni) doimo yangi, doimo yosh qoldi”.

Turkcha *kalp* so‘ziga berilgan izohlardagi farqliliklar:

Berdaq Yusuf izohida	T.O‘zturk va A.Rafiyev izohida	G‘.Matis ayev izohida	N.Yusupov a izohida
1. <i>Yurak; qalb.</i> 2. <i>Tuyg‘u, hissiyot.</i>	1. <i>Yurak, qalb.</i> 2. <i>Soxta (pul), aldamchi.</i>	<i>Yurak.</i>	1. <i>Yurak; qalb.</i> 2. <i>Tuyg‘u, hissiyot.</i> 3. <i>Soxta, qalbaki.</i> 4. <i>Ishga yaramas, tanbal.</i> 5. <i>Yolg‘onchi, aldoqchi.</i>

“Türk dil kurumu sözlükleri”da mazkur so‘zning to‘liq izohi N.Yusupova tarjimasidagi izoh bilan bir xil qayd etilgan.

1. *Yurak* ma’nosi: “*Bak ellerim nasıl titriyor, bak alım nasıl yanıyor, bak kalbime nasıl çarpıyor*”. (Yakup Kadri Karaosmanoğlu)

2. *Ko‘ngil* ma’nosi: “*Gönül işlerine karışma*”. (Yusuf Ziya Ortaç)

3. *Tuyg‘u* ma’nosi: “*İnsanı tekrar, kalp ve fikir cennetine eriştirebilecek tek kudret kadındır*”. (Halide Edip Adivar)

4. *Soxta pul* ma’nosi: “*Aslı ile kalpı arasındaki farkı ancak o işin çilekeşleri bilir*”. (Orhan Veli Kanık)

5. *Ishga yaramas, tanbal* ma’nosi: *Kalp adam.*

6. *Yolg‘onchi* ma’nosi: “*Kalp herifin biri bu...*” (Refik Halit Karay)

Berdaq Yusufning “Turkcha – o‘zbekcha va o‘zbekcha – turkcha lug‘at” kitobi va Tunjay O‘zturk va Abduraziq Rafiyev boshchiligida tuzilgan “O‘zbekcha – turkcha va turkcha – o‘zbekcha izohli lug‘ati” kitobi ilk yaratilgan tarjima lug‘at bo‘lganligi uchun ham ushbu ikki lug‘atda ayrim so‘zlarning faqat bir ma’nosi

izohlangan va oxirgi tuzilgan lug‘atlarga nisbatan kiritilgan so‘zlarning kamligi kuzatiladi. Lekin har ikki lug‘at o‘sha davrda kril alifbosi amalda bo‘lganligi uchun farqli harflar maxsus belgilanganligi va izohlanayotgan so‘zning talaffuzi transkripsiya bilan berilganligi, shuningdek, tarjima qilingan so‘zga jumla yoki iboralar misol qilinganligi ilk tarjima lug‘ati bolsa-da, mukammal va puxta tuzilganligini ko‘rsatadi.

Oxirgi tuzilgan turkcha – o‘zbekcha lug‘atlardan G‘anisher Matisayevning “Turkcha – O‘zbekcha lug‘at“i va Nasiba Yusupovaning “Türkçe – Özbekçe sözlük“ lug‘atini o‘zaro solishtirdik. Garchi mazkur lug‘atlar bir yilda nashr etilgan bo‘lsa-da, ba’zi so‘zlarning tarjima izohida farqliliklar kuzatiladi:

Turkcha *kalp* so‘ziga berilgan tarjima izohlardagi farqliliklar:

G‘.Matisayev izohida	N.Yusupova izohida
1.Suyanmoq, tayanmoq	1.Cho‘kkalamoq.
2.Birovga og‘irini solmoq, birovning hisobiga yashamoq (ko‘chma ma’noda).	2.Suyanmoq, yaslanmoq, yastanmoq.

“Türk dil kurumu sözlükleri”da mazkur so‘zning to‘liq izohi:

1. Suyanmoq, yastanmoq: *“Baba, “ya Allah” nidası ile yerinden zorla, oğluna abanarak kalktı”*. (Refik Halit Karay)
2. Cho‘kkalamoq: *“İki herif zavallıya abanıyorlar”*. (Ahmet Rasim)
3. Birovning hisobiga yashash: *“Birine yük olarak onun sırtından geçinmeye çalışmak istemiyorum”*. (Yusuf Ziya Ortaç)

Demak, *abanmak* fe’li izohi N.Yusupovaning ham, G‘.Matisayevning lug‘atida ham to‘g‘ri izohlangan va ma’nolari bir-birini to‘ldirishi mumkin.

XULOSA. O‘zbek – turk tillarida bir qancha olimlarning lug‘atlari bilan tanishilganda farqli izohlar tufayli tarjimon bazaga ham mashina tarjimasida xatoliklar yuzaga keladi. Chunki bir so‘zning bir necha ma’no ifodalashi to‘liq holatda hamma lug‘atlarda izohlanmaganli sababli lingvistik baza to‘liq shakllanmagan. Baza shakllantirilishi uchun M.Abjalovanning o‘zbek tili ontologiyasini yaratishdagi to‘rt tamoyiliga asoslaniladi [M.Abjalova, 2020. – B. 509-512]. Avvalo o‘zbek va turk tillaridagi mavjud leksik birliklar qamrab olinadi. Buning uchun yuqorda tanishib chiqilgan B. Yusufning “Turkcha – o‘zbekcha va o‘zbekcha – turkcha lug‘at“i, Tunjay O‘zturk va Abduraziq Rafiyev boshchiligida tuzilgan “O‘zbekcha – turkcha va turkcha – o‘zbekcha izohli lug‘at“, G‘.Matisayevning “Turkcha – O‘zbekcha lug‘at“i va N.Yusupovaning “Türkçe – Özbekçe sözlük“i leksikografik manbalari dastlabki bosqich uchun yetarli

hisoblanadi. Mazkur tamoyilda N.Yusupovaning lug‘atidan tayanch manba sifatida foydalaniladi. Chunki ushbu lug‘atda ko‘p ma’noli (omonim) so‘zlarning tarjimada ma’nosi to‘liq izohlangan hamda bugungi kunda eng ko‘p foydalaniladigan so‘zlar kiritilgan. Shuningdek, qamrov imkoniyatini oshirish uchun, Tunjay O‘zturk va Abduraziq Rafiyev boshchiligida tuzilgan lug‘atdan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur manbada izohlanayotgan leksemaning ma’nolari jumlar misolida qayd etilgan. Buning natijasida tildagi sinkretik shakllar, kvazisinonimlar, enantiosemlar, polifunksional so‘zlar va polisemantik so‘zlarni aniqlash imkoni oshadi, pragmatik tahlil natijasida o‘zbek – turk tili ontologiyasining lingvomadaniy ma’lumotlarni qamrab olish xususiyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abjalova M. Lingvistik kompyuter dasturlari uchun ma’lumotlar bazasi va lingvistik protsessor. // “O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2020-yil 19-20-oktabr. – B. 509-512.
2. <https://sozluk.gov.tr/>.
3. Miller G.A. 1995. WordNet: a lexical database for English. ACM Communications, 38: 39-41.
4. N.Yusupova. Türkçe – Özbekçe sözlük. Turk Dil Kurumu Yayınları. –Ankara., 2018.
5. Yusuf B. Tulum Mehmet Mahur. Sözlük-Özbekistan Türkçesi-Türkiye Türkçesi, Türkiye Türkçesi-Özbekistan Türkçesi, Lug‘at O‘zbekiston Turkchasi-Turkiya Turkchasi va Turkiya Turkchasi – O‘zbekiston Turkchasi, Türk Dünyası Araştırmaları Vakfı. – İstanbul., 1994.
6. Yusuf. B. Turk Tilining Ters Lug‘ati-Türk Dilinin Ters Sözlüğü. Yangi Asr Avlodi Nashriyoti – T., 2004.
7. Yusuf. B. Turkcha – o‘zbekcha aldoqchi so‘zlar lug‘ati, Türkçe-Özbekçe sesteş kelimeler sözlüğü. Tika, Voris Nashriyot. – T., 2009.
8. Бердақ. Туркча – ўзбекча ва ўзбекча – туркча луғат. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – Б. 415.
9. Матисаев. F. Туркча-Ўзбекча луғат. Адабиёт учқунлари. – Т., 2018
10. Тунжай Ўзтурк, Абдуразик Рафиев. Ўзбекча – туркча ва туркча – ўзбекча изоҳли луғати. Ўзбек-турк лицейи нашри. – Т., 1997.
11. Юсуф, Бердақ. Туркча-ўзбекча ва ўзбекча-туркча луғат. – Т.: Ўзбекистон, 1993. – Б. 11.
12. Abjalova M., Salomov A. Mashina tarjimasi lingvistik ta’minoti uchun o‘zbek↔ingliz sinonimlar bazasini yaratish masalasi. // “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro konfrensiyasi “Zamonaviy

leksikografiya, til korpuslari va turkiy tillar platformalarini yaratish muammolari” nomdagi sho‘ba materiallari, 2021-yil 18-oktabr. – B. 362-365.

13. Abjalova M., Abdumuminov B. Lingvistik dasturlar uchun o‘zbek tilidagi frazemalar bazasini yaratish tamoyillari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar / Respublika ilmiy-texnik konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – B. 63-67.
14. Abjalova M. Matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilish dasturining lingvistik ta‘minoti manbalari. // Ilm sarchashmalari Ilmiy-uslubiy jurnal. Urganch, 6/2015., – B. 36-39. ISSN 2010-6246.
15. Matnlarga avtomatik qayta ishlov beruvchi dasturlarning lingvistik ta‘minoti manbalari // “O‘zbek terminologiyasi: bugungi holati va istiqboli” ilmiy maqolalar to‘plami, TDO‘TAU, Toshkent, 2017.